

RAHBAR NUTQINING TA'SIRCHANLIGINI OSHIRUVCHI NOVERBAL VOSITALAR

S.Nurmanova

Toshkent davlar agrar universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrsi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada so'zlayotgan notiq nutqining ta'sirchanligi, rahbar insonlar nutqidagi eng ko'p ta'sir qiladigan noverbal vositalar haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Notiq, nutq, verbal va noverbal vositalar, siyosiy nutq, imo-ishora, tana tili, jestlar;*

Rahbar nutqining ta'sirchanlik darajasi nafaqat verbal hodisalarga, balki noverbal hodisalarga ham bog'liqdir. Tana harakatlari (qo'l, bosh, ko'z, oyoq) siyosiy nutqqa eng ko'p ta'sir qiluvchi noverbal vositalardir. Shu sababdan ishimizning bu qismida tana harakatlarini kengroq tahlil qilishga kirishdik. Siyosiy nutqda boshqa ma'zmunidagi nutqlardan farqli ravishda ushbu noverbal vositlardan foydalanishdan nihoyatda ehtiyotkorlik talab qilinadi. Masalan, OK (hammasi yaxshi) ma'nosidagi qo'l harakatidan foydalanish, siyosiy notiq etiketiga ziddir.

Biz nutqmiz davomida tinglovchilarga yetkazib bergan ma'noning faqat 30% gina bevosita so'zlar orqali ifodalanar ekan. Boshqacha qilib aytganda, agar muloqot paytida suhbatdoshingiz sizdan 1000 ta signal qabul qilgan bo'lsa, shundan faqat 300 tasigina so'zlar orqali yetkazilib berilar ekan. Yana ba'zi manbalarda bu ko'rsatkich 20% deb beriladi. Imo-ishoralar bugun fanda katta ahamiyatga egaki, hatto u alohida soha "Tana tili" sifatida tadqiq qilinmoqda.

Tana tilini imo-ishoralar tili bilan adashtirib yubormaslik juda muhimdir. Zero imo-ishoralar tili, masalan, harbiylarda, aniq va mutloq ma'noga ega bo'lib, faqat bir yo'sinda tushuniladi. Bunga sabab, harbiy operatsiya paytida har bir imo ishora bir xil tushunilishi shart. Shundagina hamma askarlar birgalikda va aniq harakat qila oladi. Aks holda tarqoqlik kelib chiqadi. Tana tilida esa aynan bir xil belgi holatdan kelib chiqib turlicha talqin qilinishi mumkin. Yuqorida aytganimizdek, javob berayotib nigohini olib qochgan odam yolg'on gapirayotgan bo'lishi mumkin. Lekin bu odam o'zini hijolatchilikdan qutqarish uchun nigohini olib qochgan bo'lishi ham mumkin. Masalan, Yapon madaniyatida ko'zga tik qaragan holda javob berish qo'pollik, ayrim holatlarda esa hurmatsizlik deb hisoblanadi.

Tana tilining yana bir o'ziga xos jihati shuki, uning ba'zi elementlari dunyodagi barcha xalqlar uchun bir xil tegishli (universal) bolishi mumkin. Masalan, nutq paytidagi tabassum barcha millatlarda samimiyat va do'stona munosabat belgisidir. Biroq, tana

tilining boshqa elementlari har bir millatning madaniyati, yashash muhiti va axloqiy me'yorlaridan kelib chiqib, turlicha bo'lishi mumkin.

Misol uchun ko'p millatlar uchun qo'lni musht qilib bosh barmoqni yuqoriga ko'tarish "yaxshi, zo'r" degan ma'nolarni bildiradi, lekin ba'zi millatlarda huddi shu ishora haqoratni ifodalaydi.

Nutqda notiqning bosh harakatlari va ko'z harakatlari nutqqa sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Lekin qo'l harakatlari nisbatan notiqalar eng ko'p qo'llovchi va ta'sir doirasi kuchli bo'lgan noverbal vositalardandir.

1. Ushbu harakat siyosiy ma'ruzalarda uchraydigan qo'l harakati bo'lib, asosan salomlashish yoki xayrlashish jarayonida qo'llaniladi. Bu jest notiqning ma'mnunlik kayfiyatini ham bildiradi.

2. Notiq statistik ma'lumotlar asosida 2 midorini ko'rsatayotgan qo'llar yuqoriga emas, rasmdagi kabi to'g'riga yo'naltirilgan holatda ta'kid kuchliroq bo'ladi.

3. Asosan siyosiy ma'ruzalar yoki muhokamalar paytida auditoriyani tinchlantirishda qo'llaniladigan jest bo'lib. Tinchlantirish ma'nosidagi ushbu harakatda birinchi ya'ni mamunlik holatdagi jestdan farqli ravishda barmoqlar tik holatda bo'ladi.

4. Notiqalar muhim masalar mukohamasini qilayotgan paytda asosan shu jestdan foydalanishadi. Bu jest minbar bo'lmagan auditoriyalarda ya'ni muhokamalarda qo'llaniladi. Barmoqlarning holatda bilish mumkinki, bu holatda rahbar nutqining muhokama mavzusi keng va dolzarb bo'ladi.

5. To'rtinchi holatga yaqin ushbu jestda, notiqning mavzuni keng, hotirjam bayon qilayotganligini bildiradi.

6. Siyosiy nutqda, siyosiy uchrashuvlarda salomlashish alohida etiketni talab qiladi. Salomlashish jarayonida panjani yotiq holatda uzatish siyosiy etiket normalariga ko'ra zid. Panja tik holatda o'rtacha balandlikda va o'rtacha uzunlikda uzatilishi kerak.

7. Ochiq holatdagi jestlardan bo'lib, savollarga javob berish jarayonida qo'llaniladi. Bunda notiq minbarga qo'llarini qo'ygan holatda turadi. Minbardagi qo'llarda barmoqlar harakatiga ehtiyotkor bo'lish kerak. Barmoqlarning haddan tashqari ko'p harakatlanishi, auditoriyani chalg'ituvchi unsurga aylanishi mumkin.

8. Rahbar nutqidagi ushbu jest mavzuning muhokamasini bir umumiy markazga jamlab, auditoriyaning diqqatini ham shu markazga qaratishga yo'naltirilgan bo'ladi.

9. To'rtinchi va beshinchi jestlarga o'xshash ushbu jest ham muhokamali mavzularda qo'llaniladi. Oldingilardan farqli ravishda bu holatda notiq fikrini erkinroq bildirayotgan holatni bildiradi.

10. Yopiq jestlar qatoriga kiruvchi bu jest siyosiy nutq etiketida tavsiya qilinmaydi. Chunki notiqdagi beparvolik holatini ko'rsatib turadi.

11. Ikki qo'lining tanaga nisbatan kengroq cho'zilgan turli ko'rinishdagi jestlar mavjud bo'lib, mavzu muhokamaning kengligi va notiqning kuchli emotsional holatda ekanligini bildiradi. Bu jest siyosiy maruzalarda keng qo'llaniladi.

Yuqoridagi barcha qo'l harakatlar notiqlar tomonidan ko'plab muhokama, munozara, maruzalarda qo'llanilib kelinmoqda. Qo'llanilish jarayonida esa takroriylik bir maromda bo'lishi, me'yoriy harakatlarni unutmaslik bosh me'zondir.

Agar notiq nutq paytida faqatgina bir qo'li bilan imo-ishora qilsa, bu g'ayritabiiy ko'rinadi. Shuning uchun ikkala qo'lni ham barobar ishlatish kerak. Yoki ularni navbat bilan ishlatganda ham teng miqdorda ishlatishga harakat qilish keark, 7-8 ta harakatni o'ng qo'l- u 2-3tasini chap qo'l qilmasin.

50-100-500 odam sig'adigan zalda bo'ladigan uchrashuvlarda qo'l bilan qilinadigan kichik imo-ishoralar birinchi qatorda boshqa hech kimga ko'rinmaydi. Shuning uchun bu holatda keng imo-ishoralardan foydalangan ma'qul.

Keng imo-ishoralar notiq haqida tinglovchilarga o'ziga ishongan, rahnamo, kichik imo-ishoralar esa o'ziga ishonmaydigan shaxs sifatida ma'lumot beradi.

Xulosa qilib aytganda, imo-ishoralar, tana harakatlari siysoiy nutqda notiq uchun mavzuning mazmun-mohiyatini ochishda bosh yordamchi vositalardir. Ulardan foydalanish ham alohida ko'nikma va mahorat talb etadi.

Ayrim hollarda imo-ishoralar o'ta tartibsiz qilinaveradi va ularning gapirilayotgan nutqqa umuman aloqasi bo'lmaydi. Odatda bu tinglovchilarning ozgina jahlini chiqaradi. Ularga notiq sarosimaga tushayotgan, ortiqcha harakatlari qilayotgan, nima qilishni bilmayotgandek tuyлади.

Imo-ishoralarning nomuvofiqligi ma'ruzaga juda katta zarar keltirishi mumkin.

- "Assalomu alaykum, hurmatli onaxonlar va otaxonlar" – notiq "onaxonlar" deganda erkaklar tomonni, "otaxonlar" deganda ayollar tomonni ko'rsatsa, notiqning savyasiga, nutqning mazmuniga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILAGN ADABIYOTLAR

1. Rasulov R., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notqlik san'ati. Toshkent, 2011.
2. Golovin B.N. Osnovi kulturi rechi. M.: Visshaya shkola, 1980.
3. Deyl Karnegi. Do'st orttirish va odamlarga ta'sir o'tkazish. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
4. Zaxarova S.N. Imidj pedagoga kak sostavlyayushaya professionalnoy kompetentnosti // Molodoy ucheniy. 2016. -№5.1.
5. Qahhorov I. Notqlik san'ati. Toshkent: Turon zamin ziyo, 2014.